

MASHARIPOVA Gularam Kamilovna
*Alfraganus universiteti professori, falsafa
fanlari doktori*

e-mail: masaripova.gularam2006@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0788-2359

ABU RAYHON BERUNIYNINH TABIIY-ILMIY, IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARINING XORIJDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Mamlakatimizda ajdodlar merosidagi olam va odam, tabiat, ijtimoiy hayot, shaxs ma'naviyati, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan olganda, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan falsafiy, tabiiy-ilmiy qarashlarini, inson kamoloti uchun konstruktiv ahamiyatga ega bo'lgan ekzistensial g'oyalarini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Maqolada Abu Rayhon Beruniy asarlarining xorijda va mahalliy olimlarimiz tomonidan o'rganilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: olam, odam, tabiat, falsafiy, tabiiy, ilmiy, qarashlar, inson kamoloti, konstruktiv ahamiyati, dunyoni bilish, ontologiya, gneseologiya.

ИЗУЧЕНИЕ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНЫХ, СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДЫ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ ЗА РУБЕЖОМ

Аннотация. В нашей стране особое внимание уделяется исследованию взглядов на мироздание и человека, природу, общественную жизнь, духовность личности, воспитанию и обучению на наследии предков, использованию их идей в соответствии с духом времени. в воспитании молодого поколения как достойных преемников. С этой точки зрения возникает необходимость всестороннего научно-теоретического изучения философских, естественно-научных взглядов ученых Хорезмской академии Маъмуна, сформированных на основе общечеловеческих ценностей, экзистенциальных идей, имеющих конструктивное значение для совершенствования человека. . В статье научно обосновано изучение творчества Абу Райхана Беруни зарубежными и отечественными учеными.

Ключевые слова: мироздание, человек, природа, философские, естественные, научные, взгляды, человеческое совершенство, конструктивное значение, познание мира, онтология, гнесология.

STUDYING THE NATURAL-SCIENTIFIC, SOCIAL-PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABU RAYHAN BERUNI ABROAD

Abstract. In our country, special attention is paid to the study of views on the universe and man, nature, social life, spirituality of the individual, education and training on the heritage of ancestors, the use of their ideas in accordance with the spirit of the times. in the education of the younger generation as worthy successors. From this point of view, there is a need for a comprehensive scientific and theoretical study of the philosophical, natural science views of scientists of the Khorezm Academy of Mamun, formed on the basis of universal values, existential ideas that have a constructive meaning for the improvement of man. . The article scientifically substantiates the study of the work of Abu Rayhan Beruni by foreign and domestic scientists.

Keywords: universe, man, nature, philosophical, natural, scientific, views, human perfection, constructive meaning, knowledge of the world, ontology, gnesology.

Kirish. Dunyo ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyotida qomusiy allomalarning ma'rifiy, falsafiy, tabiiy-ilmiy ta'limotlari, xususan, dunyoni bilish, tabiat, olam va odam, inson ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari doirasida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda [1, 47-b.]. Jumladan, dunyo tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkirlar ilmiy merosidagi olamning yaralishi, yaratuvchi va inson, koinot, tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi ta'limotning ilmiy jihatlarini tadqiq etish, inson va tabiat munosabatlari mohiyatini ochib berish, tabiiy-ilmiy qarashlarning ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojidagi o'rnini asoslash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi

Respublikamiz olimlaridan P.G.Bulgakov [2, 19-28-bb.], A.Ahmedov [3, 58-63-bb.], B.Abduhalimov [4, 82-89-bb.], S.Karimova [5, 58-62-bb.], O.Bo'riev [6, 63-71-bb.], A.Habibullaev [7, 89-95-bb.], G.Masharipova [2, 181 b.], I.Abdullaev [9, 28-37-bb.], J.Hazratqulov [10, 189-196-bb.], M.Hasaniy [11, 71-76-bb.], O.Qoriev [12, 49-54-bb.] maqolalarini aytish mumkin.

A.Ahmedov «Abu Rayhon Beruniyning «Yoritgichlarning o'tishi tushunchasini aniqlashtirish uchun ishonchli asos tayyorlash haqida» maqolasida mazkur asarni Hindistondagi Bankipur kutubxonasidagi mavjud yagona qo'lyozma asosida 1948 yili Haydarobodda Abu Rayhon Beruniy asarlari to'plamidan o'rin olgan nashriga [13, 107 b.] tayanib tahlil

qilgan. Unda mazkur risola yoritgichlarning osmon sferasining ma'lum nuqtalaridan o'tish masalasiga bag'ishlangani, qisman munajjimlikga ham tegishli ekanligi yozilgan. Qomusiy olim ushbu tadqiqotida qadimgi yunon va hind falakiyoti yutuqlaridan ham foydalangani hamda asarning fanda o'rganilishi xususida fikr yuritilgan.

B.Abdusalimovning «Hoji Xalifa Abu Rayhon Beruniy haqida» maqolasida Hoji Xalifaning «Kashf az-zunun» asarida Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'la o'rganilgan. Jumladan, ushbu kitobda uning ismi 24 marta qayd etilgan, ilmiy asarlari – ارشاد «Osor al-boqiya», (آثار الباقية) – Irshod fi ahkom annujum», (الاستشهاد باختلاف الأرساد), (التفهيم) «at-Tafhim», (تجريد الشعنات) «al-Isti'ob», (كتاب العمل بالاسترلاب) «Kitob al-amal bil usturlob», (القانون مسعودي) «Zij», (الزيج) «Qonuni Mas'udiy», (منيرالاجية) «Mineralogiya» va boshqalar xususida ma'lumotlar borligi aytiladi.

O.Bo'riyevning «Ahmad al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniy» nomli maqolasida Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida Ahmad al-Farg'oniyning falakiyot ma'lumotlarini tahlil qilgani va ularga ijobiy baho bergani, ushbu mavzudaasar ham yozgani («Tahzib

fi usul al-Farg'oniy») qiyosiy o'rganilib, ilmiy xulosalar berilgan.

A.Habibullaev to'plamning sakkizinchi sonida chop etgan «Oksfordda Abu Rayhon Beruniy asarlari» nomli maqola tarixnavislikka oid bo'lib, unda Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti tarkibidagi Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Abu Rayhon Beruniy qalamiga tegishli asarlar haqida axborot berilgan; ettita asarining to'qqizta qo'lyozmasi borligi aytilgan va ularning qisqa tavsifi ilova qilingan. Ular qatoriga «Qonuni Mas'udiy», «Kitob fi isti'ob al-vujuh al-mumkina fi san'at al-asturlob» (كتاب في استرلاب الوجوه الممكنة) (في صناعة الاسترلاب) «Asturlob yasashning mumkin bo'lgan usullarini qamrab oluvchi kitob»), «Kitob ad-durar fi sath al-ukar» (كتاب الدرر في سطح العكر) «Er sathi haqida hikoya qiluvchi durlar kitobi»), «Maqolatu fi sayr sahmay as-sa'oda va-l-g'ayb» (مقالات في سير سحامي السعادة) «G'oyiblik va baxt nayzalarining sayri haqida maqola»), munajjimlikka oid: «Kitob nuzhat an-nufus va-l-afkor fi xavoss al-mavolid as-salos al-ma'dan va-n-nabot va-l-ahjor» (كتاب نزهة النفوس والأفكار في حواس المواليد الثلاث المعدن والنبات والأحجار) «Uchta narsa – metall, o'simlik, toshlarning xususiyatlari haqida fikr va ko'ngillarga rohat baxsh etuvchi kitob»),

mineralogiyaga oid «Tashil at-tashih al-asturlob val amal bi murakkabatihi min ash-shimol val janub» (تسحيل التصحيح الاسترلاب والعمل) (بمركبته من الشمال والجنوب) «Asturlobni to'g'irlashni osonlashtirish, shimoliy va janubiy turlardan tarkib topgan asturloblar bilan ishlash»); «Kitob at-tafhim» (كتاب التفهيم) lar kiradi.

Imkon qadar ijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyoti masalasini faylasufona o'rganishga harakat qildik. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari ko'proq tabiiy va aniq fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Singapur, Malayziya, Kuvayt, Misr, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Ozarbayjon kabi ellikka yaqin davlatdan nufuzli tashkilotlar hamda ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar, mutaxassislar, ekspertlar qatnashdi. O'rta asrlarda ona-zaminimizdan yetishib chiqqan minglab olimu fuzalolar, buyuk mutafakkirlar, shoirlar bashariyat ilm-fan va ma'naviyat osmonining yorqin yulduzlari bo'lib porlagani hech kimga sir emas. Buyuk ajdodlarimizning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid

asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi osoriyotlar butun jahonning bebaho mulki hisoblanadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Hozirgi vaqtda yangi tendensiya yangi yo'nalishni ko'rsatmoqda. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik va germeneytik tahlil usullaridan foydalanilgan.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Abu Rayhon Beruniyning asarlarida tarixiy-falsafiy merosida o'z uslubi va yondoshuvlari o'z ifodasini topgan. Forobiy singari u ham O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Shuningdek, Beruniy o'zining asarlarida Hindiston, Qadimgi Yunoniston, islom mintaqasidagi tarixiy-falsafiy jarayonning muhim jihatalarini mutafakkirlarning falsafiy qarashlarini chuqur tahlil etgan. Uning diniy-falsafiy ta'limotlarni o'rganishga asos bo'lgan "Hindiston" asari nazariy va amaliy nuqtai nazarni o'zida jamlagan tarixiy-falsafiy tadqiqat uslubini xolislik, qiyosiy tahlil manbalarga murojaat tarixiy ma'naviy omillarni nazarda tutishni belgilashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida fozil shahar, odil shoh, erkin fuqaro to'g'risidagi g'oyalarning aniq va tabiiy fan yutuqlari bilan o'zaro ta'sir va aloqadorlikda bo'lganligi, inson o'zligini anglashining ilmiylashuvi hamda Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari merosidagi tabiiy-ilmiy bilimlarda tajribaviy yondoshuv haqiqatni anglash mezoni darajasiga ko'tarilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy qarashlari yangi davr Yevropa ilm-fanida eksperimental matematik tabiatshunoslik, geliotsentrizm nazariyasi, dunyoning mexanistik manzarasi, ruh va tana aloqasi kabi ilmiy bilim yo'nalishlari rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan.

Ayni paytda X-XII asrlarda Xorazmdagi olimlar yozib qoldirgan aniq fanlarga tegishli asarlar jahon ilm ahli tomonidan uch yo'nalishda o'rganilgani ma'lum bo'ldi: birinchisi – ilmiy tadqiqot, ikkinchisi – o'sha davr manbalari matnining to'la yoki qismlar shaklida nashr etilishi, uchinchisi – Xorazmda X-XII asrlarda aniq fanlar sohasida yaratilgan manbalarning jahonning turli tillariga tarjima qilinganligi hisoblanadi.

Xorazmda X-XII asrlarda falsafiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar O'zbekistonda ham XX asr ikkinchi yarmida muntazam

o'rganishga kirishilgani ma'lum bo'ldi, bu tadqiqotlarda mahalliy olimlarning salmog'i tobora ortib borgan. Tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, ilmiy-ommabop risolalar, alohida monografiyalar va to'plamlar shaklida chop qilingan. Xorazmda X-XII asrlarda falsafiy fanlar sohasidagi ishlarda falsafiy fanlarning alohida bir sohasiga tegishli ilmiy tadqiqotlar, u yoki bu ilmiy muammoni o'rganishga, o'sha davr olimlarining faoliyatiga, fanga qo'shgan hissasiga bag'ishlab yozilgan maqolalar chop o'ziga xos ahamiyatga molik.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

1. Birinchi o'rinda ko'zga tashlangan holat ilmiy tadqiqotlarning ko'lamini kengligidir, ya'ni Sharqda ham, G'arb mamlakatlaridam mazkur mavzuga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ayni paytda, X-XII asrlarda Xorazmdagi olimlar yozib qoldirgan aniq fanlarga tegishli asarlar jahon ilm ahli tomonidan uch yo'nalishda o'rganilgani ma'lum bo'ldi: birinchisi – ilmiy tadqiqot, ikkinchisi – o'sha davr manbalari matnining to'la yoki qismlar shaklida nashr etilishi, uchinchisi – Xorazmda X-XII asrlarda aniq fanlar sohasida yaratilgan manbalarning jahonning turli tillariga tarjima qilinib, chop etilgani.

2. Xorazmda aniq fanlar rivojining qadimiy ildizlarini aniqlashda, bu o'lkada uzoq yillar davomida izlanishlar olib borgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi materiallari asosiy o'rinda turadi. Mavzuga oid tadqiqotlarni vaqt jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, ular XIX asrdan boshlangan va ko'proq Evropaga to'g'ri keladi. Xorazmda X-XII asrlarda aniq fanlar rivojini ilmiy jihatdan izchil o'rganish XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan va bunda rus tilida chop bo'lgan tadqiqotlarning salmog'i katta. Ularning bir qismi «Istoriko-astronomicheskie issledovaniya» va «Istoriko-matematicheskie issledovaniya» to'plamlarining turli sonlaridan o'rin olgan.

3. Agar olib borilgan ilmiy izlanishlarga muammoning mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, u holda Xorazmda X-XII asrlarda falsafiy fanlar sohasidagi ishlarda fan tarixi talabidan kelib chiqilganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, umumiy tahlil bilan birga, falsafiy fanlarning alohida bir sohasiga tegishli ilmiy tadqiqotlar, u yoki bu ilmiy muammoni o'rganishga, o'sha davr olimlarining faoliyatiga, fanga qo'shgan hissasiga bag'ishlab yozilgan maqolalar chop etilgan, ularning orasida tarixnavislik

uslubida yozilgan maqolalar ham bor.

4. Tadqiqotlarning ayrimlarida fan tarixida vorisiylik masalasi ham ta'kidlab o'tilgan, Xorazmda X-XII asrlardagi falsafiy fanlar rivojida qadimgi yunon, hind hamda Arab xalifaligi davrida, ayniqsa, uning poytaxti Bag'dodda yaratilgan ilmiy asarlarning muayyan o'rni bor. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari falsafiy fanlar sohasida o'tmishda yaratilgan ilmiy merosdan ijodiy foydalanganlar, ularni to'ldirganlar, zarur topilganda kamchiliklarini ham ko'rsatganlar. Masalan, Menelay «Sferika»sini Ibn Iroq qayta ishlagani ma'lum. Yana bir tomoni, mavjud tadqiqotlar ichida Abu Rayhon Beruniyning falsafiy fanlar hamda ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ilmiy faoliyatiga bag'ishlab chop qilingan ishlarning salmog'i katta, bunda tadqiqotchilar fan tarixi ko'lamida xilma-xil muammolarga murojaat qilganlar.

Bundan tashqari, Xorazmda X-XII asrlarda falsafiy fanlarga e'tibor nisbatan kuchaygani, bu birinchi o'rinda kundalik amaliy ehtiyojdan kelib chiqqani ham kuzatiladi, ya'ni ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar Xorazmda sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi, madaniy - ma'naviy hayotning yuksalishi kabi omillar bilan bog'liq bo'lgan.

5. O'zbekiston Respublikasida mazkur dissertatsiya mavzusiga tegishli muhim masalalardan biri sifatida Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy faoliyatining ming yilligini tantanali nishonlash bo'ldi. Ana shu munosabat bilan ilmiy to'plamlar, xalqaro anjuman materiallari chop etildi, ulardagi maqolalarning aksari qismi falsafa sohasiga tegishlidir. Mazkur tadbir orqali Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy faoliyati tarixini o'rganish yangi dolzarb bosqichga ko'tarildi.

6. Xorazmda X-XII asrlardagi falsafiy fanlar rivojida qadimgi yunon, hind hamda Arab xalifaligi davrida, ayniqsa, uning poytaxti Bag'dodda yaratilgan ilmiy asarlarning muayyan o'rne bor.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari falsafiy fanlar sohasida o'tmishda yaratilgan ilmiy merosdan ijodiy foydalanganlar, ularning takomillashuviga katta hissa qo'shganlar.

7. Xorazmda X-XII asrlarda falsafiy fanlarga e'tibor nisbatan kuchaygani, bu birinchi o'rinda kundalik amaliy ehtiyojdan kelib chiqqani ham kuzatiladi, ya'ni ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar Xorazmda sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi, madaniy - ma'naviy hayotning yuksalishi kabi omillar bilan bog'liq bo'lgan. Bu o'z o'rnida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatganini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Sharq olimlari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiyadagi o'rne va ahamiyati. - Xalqaro konferentsiya materiallari. - Samarqand-Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 47 b.
2. Bulgakov P.G. O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi faoliyati // Sharqshunoslik, № 1. - B.19-28.
3. Ahmedov A. Beruniyning Yoritqichlarning o'tishi tushunchasini aniqlashtirish uchun ishonchli asos tayyorlash haqida // Sharqshunoslik, № 12. - B.58-63.
4. Abduhalimov B. Hoji Xalifa Beruniy haqida // Sharqshunoslik, № 4. - B.82-89.
5. Karimova S. Al-Xorazmiy al-Kosiy va uning «Ayn as-san'a» asari haqida // Sharqshunoslik, № 8. - B.58-62.
6. Bo'riyev O. Ahmad al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniy ilmiy meroslarida vorisiylik // Sharqshunoslik. № 12. - B.63-71.
7. Habibullaev A. Oksfordda Beruniy asarlari // Sharqshunoslik, № 8. - B.89-95.

8. Masharipova G. Abu Rayhon Beruniyning buyuk kashfiyotlari va falsafiy qarashlari. – Toshkent, “Lesson Press” MCHJ nashriyoti. - 2023. -181 b.
9. Abdullayev I. As-Saolibiy haqida yangi ma'lumotlar // Sharqshunoslik, № 1. - B.28-37.
10. Hazratqulov J. Rashid Vatvot – adib // Sharqshunoslik, № 8. - B.189-196.
11. Hasaniy M. Beruniy va Ibn Sino: she'r va tabobat // Shaqshunoslik, № 12. - B.71-76.
12. Qoriev O. Beruniy “Hindiston”i bilan Margʻinoniy «Hidoya»sida nikoh masalalari // Sharqshunoslik, № 5. - B.49-54.
13. Abu Rayhon Beruniy. Tamhid al-mustaqarr li tahqiq ma'ni al-mamar. – Haydarobod, 1367/1948. - B.1-107.